

ЎзДЖТУ хузуридаги  
РИАИМ

Ўқув-услубий  
мажмуа

Лотин тили йўналиши  
тингловчилари учун

Ўқув-услубий  
мажмуа

2021

ЛОТИН ТИЛИ

3.2. Лотин тилини ўрганишнинг интенсив усуллари

**Мазкур ўқув-услугий мажмуа Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил “7” декабрдаги 648-сонли буйўғи билан тасиқланган ўқув-режа ва дастур асосида тайёрланди.**

**Тузувчилар:** Пулатова Ш. – Катта ўқитувчи ЎзДЖТУ  
Ш.Х.Ташниёзова ЎзРИАИМ катта илмий ходим

**Такризчи:** Турдиқулова Р. – Катта ўқитувчи ЎзДЖТУ

*Ўқув-услугий мажмуа ЎзДЖТУ хузуридаги РИАИМ Илмий-методик Кенгашининг 2020 йил 25 декабрдаги 10 - сонли қарори билан тасдиққа тавсия қилинган.*

## М У Н Д А Р И Ж А

|      |  |    |
|------|--|----|
| I.   | ИШЧИ ДАСТУРИ.....  | 3  |
| II.  | МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ<br>ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ..... | 11 |
| III. | НАЗАРИЙ МАШҒУЛОТ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР.....                               | 14 |
| IV.  | АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР.....                                | 25 |
| V.   | КЕЙСЛАР БАНКИ.....   | 78 |
| VI.  | ГЛОССАРИЙ.....   | 80 |
| VII. | АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.....  | 83 |

## **I. ИШЧИ ДАСТУР**

### **Кириш**

Дастур Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли ва 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармонлари ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли ҳамда 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2909-сонли қарорида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, у олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касб маҳорати ҳамда инновацион компетентлигини ривожлантириш, соҳага оид илғор хорижий тажрибалар, янги билим ва малакаларни ўзлаштириш, шунингдек амалиётга жорий этиш кўникмаларини такомиллаштиришни мақсад қилади.

Дастур Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4732-сон Фармонидаги устувор йўналишлар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, у замонавий талаблар асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларининг мазмунини такомиллаштириш ҳамда олий таълим муассасалари педагог

кадрларининг касбий компетентлигини мунтазам ошириб боришни мақсад қилади.

Ўз мазмунига кўра ишчи дастур олий таълимда технологияларининг тиббий - фармацевтик терминологияни ўқитишда лотин тилини ўрни, фанларни ўқитишда интерфаол усуллар, тиббий - фармацевтик терминология асослари фанларини ўқитишда лотин тили фанидан машғулотлар олиб борувчи педагогларнинг инновацион фаолияти, молулли ва муаммоли ўқитиш технологиялари билан 5 ишлаш ва улардан фойдаланиш каби муаммолари баён этилган.

Қайта тайёрлаш ва малака ошириш йўналишининг ўзига хос хусусиятлари ҳамда долзарб масалаларидан келиб чиққан ҳолда дастурда тингловчиларнинг махсус фанлар доирасидаги билим, кўникма, малака ҳамда компетенцияларига қўйиладиган талаблар ўзгартирилиши мумкин.

### **Модулнинг мақсади ва вазифалари**

**Фанни ўқитишдан мақсади** - тингловчини чет тил ўқитувчиси касбий фаолиятига назарий ҳамда амалий жиҳатдан тайёрлашдан, замонавий билим ва малакаларни ўзлаштириш ва амалиётга жорий этишлари учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини такомиллаштириш, шунингдек уларнинг ижодий фаоллигини ривожлантиришдан иборат.

#### **Фанни асосий вазифалари қуйидагилар:**

- лотин тилини ўрганишнинг интенсив усуллари модули тингловчиларнинг касбий билим, кўникма, малакаларини такомиллаштириш ва ривожлантириш;
- тингловчиларнинг ижодий-инновацион фаоллик даражасини ошириш;
- лотин тилининг ўргатиш методикасининг асосий муаммолари билан таништириш;
- тингловчиларни ўзлари ишлаётган таълим муассасаларида олиб бориладиган дарсларда дуч келиши мумкин бўлган аниқ вазифаларни моҳирона ҳал этиш;
- тингловчиларнинг амалий кўникмаларини ишлаб чиқиш, асосий

касбий малакасининг шаклланиши;

- дарснинг онгли, тарбиявий ва таълимий мақсадларини шакллантириш;

- олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий

билим, кўникма, малакаларини узлуксиз янгилаш ва ривожлантириш;

- олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий компетентлик даражасини ошириш;

- мутахассислик бўйича махсус амалий фанлар соҳасида ўқитишнинг инновацион технологиялари ва илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш.

### **Модул бўйича тингловчиларнинг билими, кўникма, малака ҳамда компетенцияларига қўйиладиган талаблар**

Лотин тилини ўрганишнинг интенсив усуллари модули бўйича тингловчилар қуйидаги янги билим, кўникма, малака ҳамда компетенцияларга эга бўлишлари талаб этилади:

#### **Тингловчи:**

- лотин тили ва маданияти тарихини;

- лотин тилини лексикаси ва сўз бирикмасини;

- лотин тилини ўрганишнинг интенсив усуллари модулининг назарий ва амалий аспектларини;

- сўзларни яшаш қоидаларини;

- замонлар мослашувини;

- лотин тилидан рус тилига кириб келган атамалар лексикасини;

- лотин тилнинг интенсив ўқитиш асослари ва методларини;

- лотин тили ўқитишнинг замонавий ёндашувлари, технологиялари, методлари ҳамда шаклларини;

- лотин тили тарихининг асосий босқичлари, ушбу соҳадаги янги илмий ютуқларини;

- лотин тилининг ривожланиш даврлари ҳақида тасаввурга эга бўлишни;

- сўз яшаш: лотин (Европа) лексик тизимини шакллантиришга таллуқли сўз яшашнинг асосий моделларини;

-лотин тили тарихининг асосий босқичлари, ушбу соҳадаги янги илмий ютуқлар ҳақидаги **билимларга** эга бўлиши лозим.

**Тингловчи:**

- лотин тили дарс жараёнида муаммоли вазиятлар ҳосил қилишни ва уларни ечиш усуллари билиш ва қўллаш олиш;

- лотин тилини ўқитишда талабалар билимини баҳолаш йўллари билиш;

- лотин тилини ўқитишда жараёнда дўстона муҳит яратиш омилларини билиш;

- лотин тилини ўқитишда илғор педагогик технологияларни амалиётда қўллаб, интенсив усулда ўқув машғулотларини ташкил эти олиш;

- лотин тилида сўзларни ясаш қоидалари, ўзига хос асосий хусусиятларини билиш;

- лотин тили ўқитувчилари малакасини оширишда интенсив усуллардан фойдаланиш **кўникмаларига** эга бўлиши лозим.

**Тингловчи:**

- лотин тилини ўрганишнинг интенсив усуллари модули бўйича ўрганган маълумотларни амалда қўллаш олиш;

- лотин тилини ўқитишда интенсив усулларни қўллаш жараёнида ишлатиладиган кўргазмалар ва тарқатма материалларни тайёрлашга қўйиладиган талабларни билиши;

- тил ўқитиш методикаси бўйича ўрганган маълумотларни амалда қўллаш олиш;

- тингловчиларнинг билиш қобилиятларини баҳолаш олиш;

- тингловчиларнинг ўз-ўзини баҳолашга қаратилган портфолиосини ишлаб чиқиш **малакаларига** эга бўлиши зарур.

**Тингловчи:**

-лотин тили соҳасида касбий фаолият юритиш учун зарур бўлган билим, кўникма, малака ва шахсий сифатларга эга бўлиш;

- лотин тилини ўқитишда интенсив усуллардан фойдаланиш;
- чет тили таълимида таълим технологияларни қўллаш;
- лотин тилини ўқитиш бўйича эгалланган тажрибани танқидий кўриб чиқиш қобилияти, зарур бўлганда ўз касбий фаолиятининг тури ва характерини ўзгартира олиш;
- лотин тилини ўрганиш ва ўқитиш масофавий таълим ва платформаларда тингловчиларни баҳолаш;
- CEFR ва унинг доирасида 4 компетенция: лингвистик, социолингвистик, дискурсив ва стратегик *компетенцияларига* эга бўлиши зарур.

**Модулнинг ўқув режадаги бошқа модуллар билан боғлиқлиги ва узвийлиги**

Ўқув модули мазмуни ўқув режадаги мутахассислик ўқув модулларининг барча соҳалари билан узвий боғланган ҳолда профессорўқитувчиларнинг умумий касбий тайёргарлик даражасини оширишга хизматқилади.

**Модулнинг олий таълимдаги ўрни**

Модулни ўзлаштириш орқали тингловчилар фанни ўқитишнинг замонавий интерактив услубларидан унумли фойдаланиш ўрганиш, амалда қўллаш ва баҳолашга доир касбий компетентликка эга бўладилар.

**Модул бўйича соатлар тақсимооти**

| № | Модул мавзулари | Тингловчининг ўқув юкلامаси, соат |                         |       |                 |                 |
|---|-----------------|-----------------------------------|-------------------------|-------|-----------------|-----------------|
|   |                 | Ҳаммаси                           | Аудитория ўқув юкلامаси |       |                 | Мустақил таълим |
|   |                 |                                   | жумладан                |       |                 |                 |
|   |                 |                                   | Жами                    | Назай | Амалий машғулот |                 |
|   |                 |                                   |                         |       |                 |                 |



|    |   |           |           |          |           |  |
|----|---|-----------|-----------|----------|-----------|--|
| 1. | Лотин тили ва маданияти тарихи. Лотин тилидан кириб келган сўзлар ва атамалар.  | 2         | 2         | 2        |           |  |
| 2. | Ҳарф турлари. Лотин тилида сўз тартиби. Лотин тилини лексикаси ва сўз бирикмаси.  | 2         | 2         | 2        |           |  |
| 3  | Лотин тили грамматикаси. От. Сифат.   | 2         | 2         |          | 2         |  |
| 4. | Феъл. Лотин феълининг 3 та таянч ва 4 бошланғич шакллари.   | 2         | 2         |          | 2         |  |
| 5. | Феълнинг шахси номаълум шакллари: равишдош, супин, герундий ва герундларни яшаш, уларнинг маънолари ва уларни қўллаш.       | 2         | 2         |          | 2         |  |
| 6. | Олмош. Сон.   | 2         | 2         |          | 2         |  |
| 7. | Ёрдамчи сўз туркумлари  | 2         | 2         |          | 2         |  |
| 8. | Сўзларни яшаш қоидалари, ўзига хос асосий хусусиятлари. Минимум лексика (200 сўз, 50 кенг тарқалган иборалар, "Гаудеамус"). | 2         | 2         |          | 2         |  |
|    | <b>Жами: 16 соат</b>  | <b>16</b> | <b>16</b> | <b>2</b> | <b>14</b> |  |

### Ўқув машғулотлар мазмуни

#### **1-мавзу. Лотин тили ва маданияти тарихи. Лотин тилидан кириб келган сўзлар ва атамалар.**

Лотин тилини ҳинд-европа тиллари оиласига мансублиги. Лотин тили қадимги *Ossk* ва *Umbr* тиллари хусусида. Латио қабиласи ва лотин тили ҳақида. Тибр дарёси қирғоқларида яшовчи қабилаларнинг бирлашуви. Латио вилоятининг маркази Рома (Rim) шаҳри.

## **2-мавзу. Ҳарф турлари. Лотин тилида сўз тартиби. Лотин тилини лексикаси ва сўз бирикмаси.**

Лотин тили фонетикаси . Вокалес ( Унли товушлар) . Дифтонглар ва диграфлар. Сонсонантес. Бўғинларнинг чўзиқлик ва қисқалик қоидалари.

### **3 - Мавзу: Лотин тили грамматикаси. От. Сифат.**

Nomen Substantivum. Отларнинг турланиси. I-чи ва II-чи турланишдаги от ва сифатлар. Сифат-мустақил сўз туркуми. Биринчи ва иккинчи гуруҳда турланувчи сифатлар. Учинчи гуруҳда турланувчи сифатлар. Лотин тилида сифатлар род, сон, келишик категорияларига эга эканлиги. Сифат даражалари.

### **4 - Мавзу: Феъл. Лотин феълнинг 3 та таянч ва 4 бошланғич шакллари.**

Феълнинг грамматик категорияга. Инфект замонлари. Перфект замонлари

### **5 - Мавзу: Феълнинг шахси номаълум шакллари: равишдош, супин, герундий ва герундларни яшаш, уларнинг маънолари ва уларни қўллаш.**

Adverbium. Supinum. Esse- феъли замон системасида.

### **6 - Мавзу: Равиш. Олмош. Сон.**

Pronomina. Numeralia cardinali. Numeralia ordinalia. Сонларнинг синтаксиси

### **7- Мавзу: Ёрдамчи сўз туркумлари. Мустақил сўз туркумлари.**

Морфология. Сўзнинг маъноси ва грамматик жиҳатлари. Сўз туркумлари. Мустақил сўз туркумлари. Ёрдамчи сўз туркумлари. Nomen Substantivum. Verbum. Pronomen. Adverbium. Praepositio. Coniunctio. Particulae.

### **8 - Мавзу: Сўзларни яшаш қоидалари, ўзига хос асосий хусусиятлари.**

#### **Минимум лексика (200 сўз, 50 кенг тарқалган иборалар, "Гаудеамус").**

Сўз яшалиш. Барқанот иборалар. Гаудеамус мадҳияси. Лотин (Европа) лексик тизимини шакллантиришга таллуқли сўз яшашнинг асосий моделлари. Verbum. Praesens indicativi activi et passivi, Нотўғри ёрдамчи « sum, fui- esse » - бўлмоқ феъли.

### **Ўқитиш шакллари**

Мазкур модул бўйича қуйидаги ўқитиш шаклларида фойдаланилади:

- маърузалар, амалий машғулотлар (маълумотларни англаб олиш, ақлий қизиқишни ривожлантириш, назарий билимларни мустаҳкамлаш);

- давра суҳбатлари (кўрилаётган саволларга ечимлари бўйича таклиф бериш қобилиятини ошириш, эшитиш, идрок қилиш ва мантиқий хулосалар чиқариш);

- баҳс ва мунозаралар (асосли аргументларни тақдим қилиш, эшитиш ва муаммолар ечимини топиш қобилиятини ривожлантириш).

## II. МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТРЕФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ

### “SWOT-таҳлил” методи.

**Методнинг мақсади:** мавжуд назарий билимлар ва амалий тажрибаларни таҳлил қилиш, таққослаш орқали муаммони ҳал этиш йўллари топишга, билимларни мустаҳкамлаш, такрорлаш, баҳолашга, мустақил, танқидий фикрлашни, ностандарт тафаккурни шакллантиришга хизмат қилади.

|                          |                          |
|--------------------------|--------------------------|
| <b>S – (strength)</b>    | • кучли томонлари        |
| <b>W – (weakness)</b>    | • заиф, кучсиз томонлари |
| <b>O – (opportunity)</b> | • имкониятлари           |
| <b>T – (threat)</b>      | • тўсиқлар               |

**Шарқ адабиётида муаллиф, хикоячи ва персонаж нутқини таҳлил қилинг ва ушбу жадвалга туширинг.**

|          |  |  |
|----------|--|--|
| <b>S</b> | Эпик турнинг жанрларда муаллиф нутқидан фойдаланишнинг кучли томонлари | Бадиий асарнинг ғоясига бевосита боғлиқ бўлган воқеаларнинг хикоя қилиниши |
| <b>W</b> | Кичик эпик тур жанрларда хикоячи нутқидан фойдаланишнинг кучсиз        | Қисқа эпизодларда иштирок этиши  |

|          |   |   |
|----------|---|---|
|          | томонлари   |   |
| <b>О</b> | Драматик асарларда персонаж нутқидан фойдаланишнинг имкониятлари (ички) | Барча персонажларнинг ўз нутқи диалог ва монолог шаклида берилиши |
| <b>Т</b> | Тўсиқлар (ташқи)  | Маълумотларнинг тўлақонли таъминланмаганлиги...                   |

### Хулосалаш (Резюме, Веер) методи

**Методнинг мақсади:** Бу метод мураккаб, кўптармоқли, мумкин қадар муаммоли характеридаги мавзуларни ўрганишга қаратилган. Методнинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бир хил ахборот берилади ва айти пайтда, уларнинг ҳар бири алоҳида аспектларда муҳокама этилади. Масалан, муаммо ижобий ва салбий томонлари, афзаллик, фазилат ва камчиликлари, фойда ва зарарлари бўйича ўрганилади. Бу интерфаол метод танқидий, таҳлилий, аниқ мантиқий фикрлашни муваффақиятли ривожлантиришга ҳамда ўқувчиларнинг мустақил ғоялари, фикрларини ёзма ва оғзаки шаклда тизимли баён этиш, ҳимоя қилишга имконият яратади. “Хулосалаш” методидан маъруза машғулотларида индивидуал ва жуфтликлардаги иш шаклида, амалий ва семинар машғулотларида кичик гуруҳлардаги иш шаклида мавзу юзасидан билимларни мустаҳкамлаш, таҳлил қилиш ва таққослаш мақсадида фойдаланиш мумкин.

### “Тушунчалар таҳлили” методи

**Методнинг мақсади:** мазкур метод талабалар ёки қатнашчиларни мавзу бўйича таянч тушунчаларни ўзлаштириш даражасини аниқлаш, ўз билимларини мустақил равишда текшириш, баҳолаш, шунингдек, янги мавзу бўйича дастлабки билимлар даражасини ташхис қилиш мақсадида қўлланилади.

Методни амалга ошириш тартиби:

- иштирокчилар машғулот қоидалари билан таништирилади;
- ўқувчиларга мавзуга ёки бобга тегишли бўлган сўзлар, тушунчалар номи туширилган тарқатмалар берилади (индивидуал ёки гуруҳли тартибда);
- ўқувчилар мазкур тушунчалар қандай маъно англатиши, қачон, қандай ҳолатларда қўлланилиши ҳақида ёзма маълумот берадилар;
- белгиланган вақт якунига етгач ўқитувчи берилган тушунчаларнинг тўғри ва тўлиқ изоҳини ўқиб эшиттиради ёки слайд орқали намойиш этади;
- ҳар бир иштирокчи берилган тўғри жавоблар билан ўзининг шахсий муносабатини таққослайди, фарқларини аниқлайди ва ўз билим даражасини текшириб, баҳолайди.

### III. НАЗАРИЙ МАШҒУЛОТ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР

#### 1-Mavzu: Lotin tili va madaniyati tarixi.

#### lotin tilidan kirib kelgan so'zlar va atamalar.

1. Roman tillari
2. Arxaik lotin tili
3. Stato della Citta del Vaticano

Lotin tili hind-yevropa tillari oilasiga mansubdir va hozirgi roman tillarining asosi hisoblanadi. Lotin tili qadimgi *Ossk* va *Umbr* tillari bilan birgalikda qadimiy Italiyaning rivojlanishi jarayonida boshqa tillarni chetga chiqarib, asta-sekin O'rta yer dengizi atrofidagi mamlakatlarda xukmronlik qildi. Eramizdan oldingi bir-minginch yil boshlarida Appenin yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan **LATIO** qabilasi lotin tilida gaplashar edi. Latio territoriyasida yashovchi qabilalarning tili sof lotin tili deb yuritilar edi. Tibr daryosi qirg'oqlarida yashovchi qabilalarning birlashuvi natijasida Latio viloyatining markazi **Roma** (Rim) shahri deb atala boshladi.

Arxeologik qazilmalar ma'lumotiga ko'ra bu voqea eramizdan oldingi **YIII**-asrga tegishlidir. Rimliklarning o'zlari esa, Rimning paydo bo'lishi davrini eramizdan avvalgi **753**- yildan hisoblaydilar. Bizning davrgacha yetib kelgan lotin tilining eng qadimiy yozuv yodgorliklari eramizdan oldingi 7-6 asrning boshlariga tegishlidir. Qadimgi arxeologik davrining adabiy tillari bo'yicha mashhur vakili Rim komediografi **Plavt** hisoblangan. U eramizdan avvalgi 254-180 yillarda yashab o'tgan. Bizgacha uning to'liq nusxada 20 ta komediyasi, bitta komediyasining esa ayrim qismlari yetib kelgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Plavt komediyalarining lug'at va fonetik sostavi ma'lum miqdorda bo'lsada klassik lotin normalariga to'g'ri keladi. Eramizdan oldingi birinchi asrdan, eramizning birinchi asr boshlarigacha bo'lgan davrda Rimda bir necha asarlar yaratildi. Bu davrda Rim davlati tarixida juda ko'p sinfiy va ideologik kurashlar bo'lib o'tdi. Rimda yagona aristokratik hokimiyat o'rnatilgani munosabati bilan Sitsiliyada ikki marta qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Bu janglarda Rim qo'shinlari mag'lubiyatga uchrashdi.

Bundan tashqari eramizdan oldin (138-132 va 104-101) yillar davomidagi urushlarda Rim qo'shinlari qo'zg'olonchilardan bir necha marotaba yengildilar. Bu davrda yashagan *Sitseron* (106-45), *Sezar* (100-44), *Salyustiya* (86-35), *Titaliviya* (59-17), notiqlik san'ati ustasi *Katul* (80-15), *Goratsii* (68-8), *Ovidiy* (43-18) yillarda yozilgan asarlar tahlil qilinganda, adabiy lotin tilining sintaktik tuzulishining mukammal ekanligini guvohi bo'lamiz. Klassik lotin tilidan Rim badiiy adabiyoti tilini ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunki eramizning II –asriga to'g'ri keladigan davr ya'ni ilk Imperiya davrida *Lartial*, *Kvesal*, *Tatsit* kabi yozuvchi va shoirlar tomonidan yaratilgan asarlar ma'lum miqdorda o'z uslubi bilan ajralib turadi. Lotin tilining inqirozga yuz tutgan davrida rivojlanishi tugab borayotgan lotin tili alohida ahamiyatga ega. Bu davr eramizning 2-6 - asrlariga to'g'ri keladi. Bu vaqt Buyuk Imperiya mag'lubiyatidan so'ng **476** - yilda *Varvarlar* davlatining paydo bo'lishi davridir. ("*Varvarlar*"- qadimiy yunonlarda va rimliklarda madaniyatdan orqada qolgan chet elliklarga berilgan nom.)

Bu davrda qadimiy an'analar yo'qola boshladi. Tarixiy qo'llanma sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan *Ammisiy Marusligining* ( 330-400 asr) asarlarida ayrim imperatorlarning biografiyalari saqlanib qolgan, unda tugab borayotgan Imperiya davrida *Xristian* dinining tarqalishi, *Ieronim* (348- 420), *Avgustin* (354-430) va boshqalarning lotin tilida yozilgan xristian adabiyotlari vujudga kelishi to'g'risida axborot berilgan. Bu yozuvchilar asarlarida juda ko'p morfologik va sintaktik o'zgarishlar yuz berdiki, ular bevosita yangi roman tillarining paydo bo'lishiga asos bo'la boshladi. Klassik lotin tilini vujudga kelishi va rivojlanish davri, Rimning *O'rta Yer* dengizida ulkan quldorlik tuzumi mamlakatiga aylanishi davriga to'g'ri keladi. Rimliklar bosib olgan territoriyalarda *Gretsiyada* , *Kichik Osiyoda*, *Afrikaning* shimoliy qirg'oqlarida, *Grek* tili madaniyati keng tarqalgan edi. Shuning uchun ham bu joylarda lotin tili ko'p ishlatilmas edi, lekin *O'rta yer* dengizining g'arbiy tomonlarida ahvol boshqacha edi. Eramizdan oldin 2 - asrning oxirlarida lotin tili butun *Italiya* territoriyasida hukmron til bo'lib qolmasdan balki rasmiy til sifatida rimliklar bosib olgan *Pireney* yarim orolidagi viloyatlariga va hozirgi *Fransiyaning* janubiy tumanlariga ham tarqala boshladi. *Rim* askarlari va



savdogarlari orqali lotin tili o'zining so'zlashuv formasida mahalliy xalq tomonidan yaxshi o'zlashtirila boshlandi. Bu bosib olingan territoriyalarni romanizatsiyalashtirishning eng qulay yo'llaridan biri edi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri rimliklarni yaqin qo'shnilari **Kelt** territoriyasida yashayotganlar hozirgi *Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariye* ham lotin tilida gaplasha boshladi. Aslida rimliklarning *Galliya* territoriyalariga bostirib kirishlari eramizdan avvalgi 1- asrning 2-yarmida **Yuliy Sezar** qo'mondonligi ostida harbiy harakatlardan boshlangan edi (58 -51 yillardagi Galliya urushi).

Shu paytda Rim qo'shinlari *Reyn* daryosi sharqiy tumanlarida istiqomat qiladigan german qabilalari bilan to'qnashdilar. *Sezar* yana eramizdan oldingi 55-54-yillarda Britaniyaga yurish qildi. Lekin bunday qisqa muddatli urushlar Rim va Britaniyaliklar o'rtasida juda ko'p kelishmovchiliklarni keltirib chiqardi.

Faqat **100**-yildan so'ng eramizning **43**-yilida *Britaniya, Rim* qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Rimliklar bu territoriyada **407**-yilgacha hukmronlik qildilar. Shunday qilib, **500** yil davrida Galliya, Britaniya territoriyalaridagi qabilalar, hamda germanlar tiliga lotin tili o'zining juda qattiq ta'sirini ko'rsatdi. Lotin tili so'zlashuv formasida yangi milliy roman tillarining vujudga kelishiga asos bo'ldi. Bu guruhra **Appenin** yarim oroli territoriyasida vujudga kelgan *Italyan* tili qadimiy *Galliya* territoriyalarida rivojlangan fransuz va provansal tillari, *Pireney* yarim orolida vujudga kelgan ispan va portugal tillari, Rim koloniyasi hisoblangan *Rossiya* territoriyasida retoraman tili, *Rim* provinsiyasi hisoblangan *Dakiya* territoriyasida rumin tili, *Moldaviyadagi* moldavan tillari kiradi. *Roman* tillarining kelib chiqishi umumiy bo'lsa-da, hozirgi paytda ular o'rtasida juda katta farqlar bor. Buni lotin tilining bu hududlarga bir necha asrlar davomida kirib kelganligi, mahalliy qabilalar tili va shevalari ta'siri natijasida bir necha marta o'zgarganligi bilan tusunturish mumkin. Eramizdan oldingi 1 asrdan eramizning birinchi asrigacha rimlik german qabilalarini o'zlariga bo'ysindirmoqchi bo'lgan bo'lsa, ular buning uddasidan chiqa olishmadi. Faqat ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar juda ko'p vaqt davom etdi. Bu aloqalar asosan *Reyn* va *Dunay* daryolari qirg'oqlarida joylashgan Rim koloniyalari territoriyalari orqali amalga oshirilardi.

Shu sababli ayrim nemis shaharlari nomlari lotin tilidan kelib chiqqan. Britaniyada ham lotin tili ta'sirini shahar nomlarida uchratish mumkin.

### **Stato della Citta del Vaticano**

Rimning g'arbiy qismidagi Monte-Vatican tepaligida joylashgan. Mustaqil shahar-davlat. Katolik cherkovining siyosiy, ma'muriy va mafkuraviy markazi. Qariyb hamma tomoni tosh devor bilan o'ralgan. Maydoni **0,44** km<sup>2</sup>. Doimiy aholisi 1ming kishiga yaqin (shundan 700 kishi Vatikan fuqorosi.). Rasmiy tillari: **lotin** va **italyan** tillari.

Davlat tuzumi: Vatikan cheklanmagan teokratik monarxiya. Konstitutsion hujjatlari (o'zining bayrog'i, gerbiga ega) 1929 yilda qabul qilingan.

Davlat boshlig'i – Rim papasi. 1996 yil fevralda papa Ioan Pavel II tomonidan chiqarilgan yangi Konstitutsiyaga ko'ra, papa odatda kardinallar orasidan yashirin ovoz berish yo'li orqali kardinallar hay'ati tomonidan umrbod saylanadi. Oliy qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati papa qo'lida. Ayni vaqtda u Rim katolik cherkovining ham boshlig'i hisoblanadi.

Papa huzuridagi maslahat organi kardinallar hay'ati cherkovining eng muhim ishlarini muhokama qilish va papani saylash uchun yig'ilib turadi. Rim papasi Ioan Pavel II 1978 yil 16- oktyabrda saylangan. Bu kun Vatikanda milliy bayram sifatida nishonlanadi.

Tarixi: Ilk o'rta asrlarda Rim papalarining turar joyi, 1377 yildan boshlab esa doimiy qarorgohi. 8-asrdan cherkov davlati sifatida mavjud. 1870 yilda Italia qirolligi tarkibiga qo'shib olingan. 1929 yilda papa bilan Italia hukumati o'rtasida Lateran bitimi natijasida Vatikan davlati qayta tiklandi va 11 fevralda mustaqil davlat sifatida tan olindi. Katolik cherkovining xalqaro markazi sifatida Vatikan dunyoning ko'pgina mamlakatlariga ijtimoiy turmushiga ta'sir o'tkazadi. Davlat iqtisodiy negizini kapital mablag'lardan tushadigan daromadlar, milliy katolik cherkovlarining badallari, dindorlarning ehsonlari tashkil qiladi. Vatikan jahonning bir qancha kompaniya va banklari aksiyasiga ega. Italiya, Ispaniya, Germaniya mamlakatlarida katta yer maydonlariga ega. Xorijiy sayyoxlik, pochta markalari chiqarish, sovg'alar sotish ham ko'p daromad keltiradi.

Pul birligi – Ital’yan lirasi, “Acta apostolike oedis” oylik byulliteni, “ Annure della Domenicario Pontifichio” yillik ma’lumotnomasi, “Osservato“ katoliklar haftanomasi, “Osservatore romano “ kundalik gazetasi rasmiy nashrlari hisoblanadi. Vatikan televizion markazi : “Centro televisio Vaticano” 1983 yilda barpo etilgan. Vatikan radiosiga 1931 yil 12 fevralda asos solingan.

### **Savollar**

1. Lotin tili qaysi tillar oilasiga kiradi ?
2. Lotin tili nechta til guruhiga bo’linadi ?
3. Vatikan davlati haqida ma’lumot bering?
4. Lotin tilining rivojlanish davrlari nechta?
5. Vatikan davlati qachon mustaqillikka erishgan?

### **2-Mavzu: Harf turlari. Lotin tilida so’z tartibi. Lotin tilini leksikasi va so’z birikmasi.**

1. *Lotin tili fonetikasi*
2. *Vocales ( Unli tovushlar)*
3. *Diftonglar va digraflar*
4. *Consonantes*
5. *Bo’g’inlarning cho’ziqlik va qisqalik qoidalari.*

Lotin tilining talaffuzi o’zining tarixiy taraqqiyoti davrida bir qancha o’zgarishlarga uchradi. Quyida lotin tili alifbosidagi harflar ro’yxati keltirilmoqda. Lotin tilida hozirda 25 ta harf bor, bundan tashqari, bir nechta harf birikmasi, 2 ta diftong va 2 ta digraf mavjud.

| <b>№</b>  | <b>Bosma harflar</b> | <b>Harflarning o’qlishi</b> | <b>Talaffuzi</b> |
|-----------|----------------------|-----------------------------|------------------|
| <b>1.</b> | <b>Aa</b>            | <b>A</b>                    | <b>[a]</b>       |
| <b>2.</b> | <b>Bb</b>            | <b>Be</b>                   | <b>[b]</b>       |
| <b>3.</b> | <b>Cc</b>            | <b>Tse</b>                  | <b>[ts] [k]</b>  |
| <b>4.</b> | <b>Dd</b>            | <b>De</b>                   | <b>[d]</b>       |

|     |           |                |           |
|-----|-----------|----------------|-----------|
| 5.  | <b>Ee</b> | <b>E</b>       | [e]       |
| 6.  | <b>Ff</b> | <b>Ff</b>      | [f]       |
| 7.  | <b>Gg</b> | <b>Ge</b>      | [g]       |
| 8.  | <b>Hh</b> | <b>Ha</b>      | [h]       |
| 9.  | <b>Ii</b> | <b>Ii</b>      | [i]       |
| 10. | <b>Jj</b> | <b>jota</b>    | [y]       |
| 11. | <b>Kk</b> | <b>Ka</b>      | [k]       |
| 12. | <b>Ll</b> | <b>El</b>      | [l]       |
| 13. | <b>Mm</b> | <b>Em</b>      | [m]       |
| 14. | <b>Nn</b> | <b>En</b>      | [n]       |
| 15. | <b>Oo</b> | <b>O</b>       | [o]       |
| 16. | <b>Pp</b> | <b>Pe</b>      | [p]       |
| 17. | <b>Qq</b> | <b>Qu</b>      | [k]       |
| 18. | <b>Rr</b> | <b>Er</b>      | [r]       |
| 19. | <b>Ss</b> | <b>Es</b>      | [s] [z]   |
| 20. | <b>Tt</b> | <b>Te</b>      | [t]       |
| 21. | <b>Uu</b> | <b>U</b>       | [u]       |
| 22. | <b>Vv</b> | <b>Ve</b>      | [v]       |
| 23. | <b>Xx</b> | <b>Iks</b>     | [gz] [ks] |
| 24. | <b>Yy</b> | <b>ipsilon</b> | [i]       |
| 25. | <b>Zz</b> | <b>zeta</b>    | [z]       |

Vocales ( Unli tovushlar)

Lotin tilida 6 ta unli tovush mavjud; unli tovushlar bu tilda vocbles deb ataladi, ulardan 3 tasi yumshoq va 3 tasi qattiq unlilar.

Unli tovushlar - **a,e,i,o,u,y**

Yumshoq unlilar - **i,e,y**

Qattiq unlilar - **a,o,u**

Klassik lotin tilida va qadimiy hind-yevropa tillarida unlilar uzun va qisqa talaffuz qilingan. Agar unli harfning ustiga “-“ to’g’ri chiziq qo’yilsa , u cho’ziq talaffuz qilinadi. Misol: *longua*, *amoca*.

Agar unli harfning ustida yoysimon belgi bo’lsa, bu unli harf qisqa talaffuz qilinadi, *rr̄rr̄* - *tabŭla*, *aquīla*. Unli harflarning uzun yoki qisqaligiga qarab , so’z ma’nosi o’zgaradi:

*lober* - ozodlik *s3ro* - kech *venot* - u keladi

*līber* - kitob *sĕro* - men ekyapman *venīt* - u keldi

### **Lotin tilida diftonglar va digraflar mavjud.**

Ikkita unli harf birikmasining ikkita tovushni ifodalashi diftong deyiladi.

Diftonglar:

*au*-[au]- *aurora* [avrora]-tong

*eu* –[eu]- *Europa* [europa]-Yevropa

Ikkita unli harf birikmasining bitta tovushni ifodalashi monoftong deyiladi. Lotin tilida bir tovushni ifodalovchi asosan ikkita digraf mavjud.

Digraflar: *ae*- [e]- *Caesar* [tsesar]- Sezar

*oe*- [e] -*foedus* [fedus]- shartnoma, *poena* [pena]-jazo

Agar ikkita unlini alohida talaffuz qilish kerak bo’lsa, unda ikkinchi unliga cho’ziqlik (- ) yoki qisqalik (̄ ) belgisini qo’yish kerak. *Ролма*-[roema]- doston, *aer* - [aer]- havo.

### **Consonantes** (Undosh tovushlar)

Lotin tilida undoshlarni talaffuz qilinishi:

**C**- undoshi e,i,y - yumshoq unlilari va *ae,oe* digraflari oldida kelsa –[ts] deb talaffuz qilinadi. Masalan;

*cito*-tez, *caelum*-osmon, *cena*-tushlik;

a,o,u qattiq unlilari oldida, undoshlar oldida va so’z oxirida [k] - deb talaffuz qilinadi. Masalan;

*causa* - sabab, *casa*-uy, *credo* - men ishonaman.

**K** - tovushi klassik lotin alifbosidan qolgan bo’lib [k] deb o’qiladi.

Masalan; *Kalendae* - kalendar

**L** - undoshi xuddi ingliz, nemis va fransuz tillaridagi kabi yumshoq o'qiladi : luna – oy.

**Q** - tovushi – *u*- bilan birga qo'llanib [kv] deb talaffuz qilinadi.

Masalan ; quartus [kvartus] - to'rtinchi, quintus [kvintus] - beshinchi

**S** - tovushi ikki unli ortasida kelsa yoki har qanday bir unli bilan -m,n- undoshlaridan keyin kelsa [z], qolgan hollarda [s] deb talaffuz qilinadi.

Masalan ; rosa- atirgul, Asia-azia, mensis –oy (yildagi oy), servus – hizmat.

**Ti**-harf birikmasi unilardan oldin kelsa [tsi] deb talaffuz qilinadi.

Masalan, natio[natsio] -xalq, Terentia [terentsia]- Terentia, ism.

Lekin –ti- harf birikmasidan oldin -s,t,x- undoshlari kelsa [ti]-deb talaffuz etiladi: bestia [bestia] - yirtqich, mixtio [mikstio]-aralashish, Attius [attius]-ism.

**Ng**- harf birikmasi unililar oldida kelsa [ngv], qolgan hollarda [ngu] deb talaffuz qilinadi :

Masalan ; lingua[lingva]-til; angulus[angulus]- burchak.

**Su** - harf birikmasi - a,e- unililari oldida [sv] deb, qolgan hollarda [su]-deb talaffuz qilinadi : suavis[svavis]-yoqimli, suus[suus]-o'ziniki

**Y,z**- tovushlari grek tilidan kirib kelgan so'zlarda uchraydi :

Masalan ;symptoma [simptoma]-belgi; zephyrus[zefirus]-zefir.

**X** - undoshi ikki unli orasida kelsa [gz], qolgan hollarda [ks] deb talaffuz qilinadi;

Masalan ; exemplar [egzemplar]-namuna, maximus [maksimus]-eng katta.

**Quyidagi harf birikmalari grek tilidan kirib qolgan so'zlarda ko'proq uchraydi:**

**ph** - rus tilida [f] : philologia - filologiya

**th** - rus tilida [t] : theatrum - teatr

**rh** - rus tilida [r] : rhetorika- ritorika

**ch** - rus tilida [x] : pulcher – chiroyli

**Bo'g'inlarning cho'ziqlik va qisqalik qoidalari.**

Lotin tilida bo'g'inlardagi tovushlar cho'ziq va qisqa talaffuz etiladi.Cho'ziq talaffuz qilinadigan tovushlar ustiga to'g'ri chiziq, qisqa talaffuz qilinadigan tovushlar ustiga yoysimon chiziq chiziladi.

### **Cho'ziqlik qoidalari :**

1. Agar bo'g'i nda diftong bo'lsa shu bo'gin cho'ziq talaffuz qilinadi :

aztas-hayot cazlum-osmon

azdes-xona pozna-jazo

2. Agar unli harf ikki va undan ortiq undosh harflar yoki x va z undoshlaridan oldin kelsa shu bo'g'in cho'ziq talaffuz qilinadi ;

reflxus - odat exotus - natija

zxcuso-uzr so'rayman schozandra - limon o't

3. Agar bog'inda ыг,он,вт,фт,вр,вл,фс qo'shimchalari qatnashsa shu bo'g'in cho'ziq talaffuz qilinadi : aquφsus - sersuv

сарыт – bosh

### **Qisqalik qoidalari :**

1. Agar unli harf boshqa unli harf oldidan kelsa,shu bo'g'in qisqa talaffuz qilinadi :

olëum - moy

folëum- barg

Adriānus - Adrian

2. Agar unli harf **bl,br,cl,cr,dl,dr,pl,pr,tl,tr,gr,gl** harf birikmalari oldida kelsa,shu bo'g'in qisqa talaffuz qilinadi : palpëbra - qovoq

prtria - vatan

3. Agar unli harf *ch,ph,th,rh* va qu harf birikmasidan oldin kelsa, shu bo'g'in qisqa talaffuz qilinadi: machīna - mashina

antīquus- qadimgi

**Izoh.** Undosh harflar orasida soqov hamda yumshoq undosh tovushlar mavjud.

«soqov» undosh tovushlar muta termini bilan, «yumshoq » undosh tovushlar esa liquida termini bilan ataladi. «soqov» va «yumshoq » undosh tovushlarning birikmasi muta cum liquida deb ataladi. Bular quyidagilar:

**br,bl,cl,cr,pl,pr,dl,dr,tr,tl,gr,gl**

4. Agar bo'g'inda ul,ib,id,ol,il harf birikmalari bo'lsa shu bo'g'inlar qisqa talaffuz qilinadi : gracīlis – nafis, facīlis – yengil.

**So'zlarni bo'ginlarga bo'lish.**

O'zbek tilidagidek lotin tilida ham so'zlar bo'g'inlarga bo'linadi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'gin bo'ladi.

bel-la-dφn-na - sohibjamol

So'zlar quyidagi holatlarda bo'g'inlarga bo'linadi :

1. Yakka undoshlar (shuningdek qu harf birikmasi ) oldidan bo'g'inga bo'linadi:

ro-sa, a-qua, au-rum, Eu-ro-pa.

2. Muta cum liquida harf birikmalari oldidan va boshqa undosh harflar birikmasi oldidan bo'g'inga bo'linadi : a-gri-cō-la - dehqon

pr-tri-a - vatan

dis-cī-pli-na - tartib

pŭnc-tum - nuqta

for-ты-na - taqdir

3. Old qo'shimcalarning ajratilishiga ko'ra bo'g'inga bo'linadi :

de-scen-do pastga tushyapman

ab-scin-do yirtayapman

abs-ce-do taslim bo'layapman

4. Til o'rta tovushi yota unlilar orasida kelganda ikkilanadi,yani ikki bo'ginga bo'linadi : pej-jor yomonroq

maj-jor kattaroq.

### **Accentus (Urg'u)**

O'zbek tilida urg'u har doim so'zning oxirgi bo'ginidagi unli tovushga tushadi. Lotin tilida esa urg'u so'zning oxiridan ikkinchi yoki uchinchi bo'g'indagi unliga tushadi. Lotin tilida urg'uning quyidagi xossalari mavjud :

1. Lotin tilida urg'u hech qachon so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi .

2. Ikki bo'ginli so'zlarda urg'u har doim so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'indagi unliga tushadi : Ё-na - oy,

mб-ter ona.

3. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, urgu shu bo'g'inning unli tovushiga tushadi : ma-gos-ter ustoz,o'qituvchi

fe-n3s-tra deraza



4. Agar so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa,urg'u shu so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi :

in-sū-la orol

me-dī-cus shifokor.

**Savollarga javob bering.**

1. . Lotin tili alfavitida nechta harf bor?
2. Diftong va digraf deganda nimani tushunasiz ?
3. Qachon bo'g'inda cho'ziq va qisqalik belgilari ishlatiladi ?
4. Qanday holatlarda so'zlar bo'ginlarga bo'linadi ?
5. Zo'zlarda urg'u asosan qaysi bo'g'inlarga qoyiladi ?

## VI. АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ УЧУН МАТЕРИАЛЛАР

### 3-Mavzu: Lotin tili grammatikasi. Ot. Sifat.

1. Nomen Substantivum
2. Otlarning turlanishi
3. I-chi va II-chi turlanishdagi ot va sifatlar

**Nomen Substantivum** (Ot va uning formalari).

Predmetning ma'nosini ifodalaydigan va grammatik son,(egalik),rod, kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, kim?, nima? savollariga javob beradigan mustaqil so'z turkumiga ot deyiladi. Otlarda uch xil grammatik rod bo'lib, ular quyidagilar :

#### **GENUS**

**Genus masculinum** - muj rod ( m ) hortus,i,m-bog', ager,i,m-dala.

**Genus femininum** - jens.rod ( f ) puella, ae,f-qiz, dies,ei,f-kun.

**Genus neutrum** - sred.rod ( n ) mare,is,n-dengiz, verbum,i,n-so'z

#### **NUMERUS**

Otlar ikkita songa ega: Numerus singularis - birlik son. Otning birlik soni ot o'zagidan hosil bo'ladi. Lo'g'atda berilishi birlik sonidir.(**a, us,er,ir, um, or, os, as, es, x,o, io,en, us, u, s,**)

Misol: pomum ,schola , uva, floris,amocus, magoster va boshqalar.

Numerus pluralis - ko'plik son. Otning ko'plik soni ot o'zagiga qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilinadi.(**ae, i, a, es, a, u, ua,es**)

Misol: amocae, magostro, bella, mari, domus, fructus, dies.

#### **CASUS** (kelishiklar)

Lotin tilida ham o'zbek tilidagidek 6 ta kelishik mavjud :

1. **Casus Nominativus** - bosh kelishik.
2. **Casus Genetivus** - qaratqich kelishik
3. **Casus Dativus** - jo'nalish kelishik
4. **Casus Accusativus** - tushum kelishik
5. **Casus Ablativus** -chiqish kelishik
6. **Casus Vocativus** - chaqirish kelishik.

Vocativus kelishigi hozirgi vaqtda qo'llanilmaydi, aniq ism yoki narsalarga nisbatan ishlatiladi. Eski slavyan tillarida, ya'ni Belorus hamda Ukrain tillarida, arxaik so'zlarda ishlatiladi.

Qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasiga qarab otlar- 5- ta turlanish

| turiga       | II        | III                  | IY                | Y                       |
|--------------|-----------|----------------------|-------------------|-------------------------|
| bo'linadi: I |           |                      |                   |                         |
| Nom.ing.     | a (f)     | us,er (m);<br>um (n) | voc et<br>cons. i | us (m); u<br>(n) es (f) |
| Gen.sing.    | <b>ae</b> | <b>i</b>             | <b>is</b>         | <b>us</b> <b>ei</b>     |

Otlar lug'atlarda nominativus singularisda, keyin genetivus singularis qo'shimchasi, so'ngra otlarning rodi va oxirida tarjimasini beriladi: Misol:

natura, ae, f - tabiat

lupus, i, m - bo'ri

bellum, i, n - urush

puer, i, m - bola

civis, is, m, f - fuqoro

fructus, us, m - meva

dies, ei, f - kun

Otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda ot negiziga kelishik qo'shimchalari negizini topish uchun qaratqich kelishigi birlik soni shaklidan kelishik qo'shimchasi olib tashlanadi:

nom.sing. gen.sing. Otning negizi

aqua aquae aqua

lupus lupi lup

septum septi sept

### **Declinatio prima**

(Otlarning birinchi guruhda turlanishi)

Otlarning birinchi guruhda turlanishiga Nom.Singda – *a-* qo'shimchasi bilan tugagan femininum rodidagi otlar kiradi. Bu otlar Gen.Singda – *ae-* qo'shimchasi bilan tugaydi.

Birinchi guruh otlarining lug'at formalari quyidagicha:

silva , ae, f - o'rmon

rosa, ae, f - atirgul

schola, ae, f - maktab

luna , ae, f - oy

causa , ae , f – sabab

Birinchi guruh otlari kelishiklarda quyidagi qo'shimchalar orqali turlanadi:

| Casus    | Sing | Plur | sing    | plur      |
|----------|------|------|---------|-----------|
| Nom.Voc. | a    | ae   | schola  | scholae   |
| Gen.     | ae   | arum | scholae | scholarum |
| Dat.     | ae   | as   | scholae | scholos   |
| Acc.     | am   | as   | scholam | scholas   |
| Abl.     | a    | is   | schola  | scholos   |

### **Declinatio secunda**

(Otlarning ikkinchi guruhda turlanishi)

Otlarning ikkinchi guruhda turlanishiga mas.nom..sing.da - us, -er - ir; va neut.nom.singda.da – um; qo'shimchalari bilan tugagan otlar kiradi. Gen.sing.da ikkala rodda otlar- o qo'shimchasi bilan turlanadi.

Ular lugatlarda quyidagicha beriladi :

mundus, i ,m - tinchlik

hortus, i, m - bog'

liber,bri,m - kitob

bellum,i,n - urush.

Ikkinchi guruh otlari kelishiklarda quyidagi qo'shimshalar orqali turlanadi: Casus

|     | Singularis |     | pluralis |      |
|-----|------------|-----|----------|------|
| Mas | neut       | mas | neut     |      |
| Nom | ūs ,er,ir  | um  | i        | a    |
| Gen | i          | i   | orum     | orum |
| Dat | o          | o   | is       | is   |

|     |    |    |    |    |
|-----|----|----|----|----|
| Acc | um | um | os | a  |
| Abl | o  | o  | is | is |
| Voc | ě  | um | i  | a  |

## **Nomen adjectivum**

(Sifat so'z turkumi)

Predmetning belgisini, hajmini, mazasini, shaklini bildirib qanday? qanaqa? kabi so'roqlarga javob bo'lgan so'z turkumi sifat deb ataladi. Lotin tilida sifatlar ikkiga bo'linadi:

1. *Birinchi va ikkinchi guruhda turlanuvchi sifatlar ;*
2. Uchinchi guruhda turlanuvchi sifatlar;

Lotin tilida sifatlar ham rod, son, kelishik kategoriyalariga ega. Ular ham otlar kabi kelishiklarda turlanadi. Sifatlarning alohida kelishik qo'shimchalari bo'lmaganligi sababli ular I, II va III chi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi. Birinchi guruhdagi sifatlar jenskiy rodga tegishli bo'lib ular otlarning I chi guruh kelishik qo'shimchalari orqali, ikkinchi guruh sifatleri masc. va neut. rodiga tegishli bo'lib otlarning II-chi guruh kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi.

Sifatlar lug'atlarda masculinum bosh kelishik birlikda beriladi, so'ngra femininum bosh kelishik birlik qo'shimchasi, undan so'ng neutrum bosh kelishik birlik qo'shimchasi va oxirida ularning tarjimai beriladi. Masalan:

bonus, a, um - yaxshi

magnus, a, um - katta

malus, a, um - yomon

ruber, bra, brum - qizil

pulcher, chra, chrum - chiroyli

Singularis Pluralis

Nom. bonŭs, bona, bonŭm boni, bonae, bona

Gen. boni, bonae, boni bonorum, bonarum, bonorum

Dat. bono, bonae, bono bonis, bonas, bonis

Acc. bono, bonam, bono bonos, bonas, bona

Abl, bono, bona, bono bonis, bonis, bonis

Voc. bonē, bona, bonūm bono, bonae, bona

Gapda sifatlarlar otlar bilan rodlarda, sonlarda va kelishiklarda moslashadi. O'zbek tilida sifatlar aniqlanayotgan otdan oldin qorllansa, lotin tilida esa har doim aniqlanayotgan otdan keyin qo'llanadi.

Masalan: discipulus bonus- yaxshi o'quvchi

| Singularis            | Pluralis             |
|-----------------------|----------------------|
| Nom. discipulūs bonūs | discipuli boni       |
| Gen. discipuli boni   | discipulorum bonorum |
| Dat. discipulo bono   | discipulis bonis     |
| Acc. discipulūm bonūm | discipulos bonos     |
| Abl. discipulo bono   | discipulis bonis     |
| Voc. discipulē bonē   | discipuli boni       |

### **Declinatio tertia**

(Otlarning uchinchi guruh turlanishi)

Uchinchi guruhda turlanuvchi otlar masculinum, femininum, neutrum rodlariga tegishli bo'lib, ular nom.sing.da har xil qo'shimchalarga ega bo'ladi. Uchinchi guruhdagi otlarning asosiy xususiyati, masculinum, femininum, neutrum rodidagi otlar gen.sing.da - os qo'shimchasi bilan turlanadi.

Masculinum va femininum rodidagi otlar kelishiklarda turlanganda bir xil qo'shimchalarga ega bo'ladi. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning negizi Gen.Sing.dagi – os- qo'shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi. Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning lug'at shakli quyidagicha :

clavis, is, f - kalit

orator, oris, m - notiq

lex, legis, f - qonun

nomen, inis, n - ism

semen, inis, n - urug' (oila)

Bir bo'g'inli otlar lug'atlarda nom.sing.ning to'liq shakli va gen.sing.ning ham shakli to'liq beriladi.

Misol:

aer, aeris, m - havo

pes, pedis, m - oyoq

pax, pacis, f - tinchlik

nix, nivis, f - qor

Uchinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo'shimchalari.

| Genus     | Singularis |                    | pluralis   |                 |
|-----------|------------|--------------------|------------|-----------------|
|           | masc.fem.  | neut.              | masc.fem.  | neut.           |
| Nom. Voc. | har-hil    | qo'shimcha<br>lar. | es         | a               |
| Gen.      | is         | īs                 | ŭm         | um              |
| Dat.      | i          | i                  | ibus       | ibŭs            |
| Acc.      | em         | nom+acc            | es         | a               |
| Abl.      | e          | e                  | ibŭs       | ibŭs            |
| Casus     | singularis | pluralis           | singularis | pluralis        |
| Nom. Voc. | lex        | leg- es            | nomen      | nomin- a        |
| Gen.      | leg-īs     | leg- ŭm            | nomin -īs  | nomin -ŭm       |
| Dat.      | leg -o     | leg -ibŭs          | nomin -o   | nomin -<br>ibŭs |
| Acc.      | leg -em    | leg -es            | nomen      | nomin -a        |
| Abl.      | leg -e     | leg -ibŭs          | nomin -e   | nomin -<br>ibŭs |

Uchinchi guruhda turlanuvchi otlar grammatik jihatidan uch guruhga bo'lib o'rganiladi.

**Undosh turlanish;** Undosh turlanishga uchchala jinsdagi otlar kiradi. Undosh turlanishdagi otlar kelishiklarda turlanganda Gen.Sing.dan negizi hosil qilinganda otning negizi har doim undosh bilan tugallanadi. Masalan:

pater, tris, m - ota

Nom. pater, gen.sing. patrīs -īs- olib tashlansa otning negizi – patr-





sing. plur.      sing. plur.

Nom.Voc. mare marie aņmal aņmalir

Gen. marīs mariŭm animalis animalium

Dat. maro marībŭs animali animalibus

Acc. mare maria aņmal animalia

Abl. maro marībŭs animali animalibus

### III- Aralash tipdagi otlar.

Aralash tipdagi otlarga quyidagilar kiradi :

b). o'nlikdan oldin birlik kelib, birlik va o'nlik orasiga – et bog'lovchisi qo'yiladi: tres et viginti - yigirma uch ( so'zma-so'z tarjimasida “ uch va yigirma”).

Tartib sonlar ( primus, a,um- birinchi , secundus,a,um – keyingi , ikkinchi , alter , era , erum – boshqasi , ikkinchilardan tashqari ) sanoq sonlardan hosil bo'ladi. Ko'pgina sonlar ( 18 dan boshlab) suffiks – esim – va jinslar qo'shimchasi –us, -a,-um yordamida hosil bo'ladi:

Duodevisimus ,a, um – o'n cakkizinchi

Centesimus - yuzinchi; Millesimus - minginchi

Yangi tillarda sanoq sonlar **1** dan **10** gacha umumiy Hind- Yevropa ildizlarini variantlari bo'lib, ayrim hollarda katta fonetik o'zgarishlar hosil bo'ladi.

### Sanoq sonlarning solishtirma jadvali

#### Jadval № 2

|           | lotin tili        | fransuz tili  | ingliz tili  | nemis tili    | Rus tili                 |
|-----------|-------------------|---------------|--------------|---------------|--------------------------|
| <b>1</b>  | <b>unus,a, um</b> | <b>un,une</b> | <b>one</b>   | <b>ein</b>    | <b>одинъ, одна, одно</b> |
| <b>2</b>  | <b>duo,ae,o</b>   | <b>deux</b>   | <b>two</b>   | <b>zwei</b>   | <b>два, две</b>          |
| <b>3</b>  | <b>tres,tria</b>  | <b>trois</b>  | <b>three</b> | <b>drei</b>   | <b>Три</b>               |
| <b>4</b>  | <b>quattuor</b>   | <b>quatre</b> | <b>four</b>  | <b>vier</b>   | <b>Четыре</b>            |
| <b>5</b>  | <b>quinque</b>    | <b>cinq</b>   | <b>five</b>  | <b>funf</b>   | <b>Пять</b>              |
| <b>6</b>  | <b>sex</b>        | <b>six</b>    | <b>six</b>   | <b>sechs</b>  | <b>Шесть</b>             |
| <b>7</b>  | <b>septem</b>     | <b>sept</b>   | <b>seven</b> | <b>sieben</b> | <b>Семь</b>              |
| <b>8</b>  | <b>octo</b>       | <b>huit</b>   | <b>eight</b> | <b>acht</b>   | <b>Восемь</b>            |
| <b>9</b>  | <b>novem</b>      | <b>neuf</b>   | <b>nine</b>  | <b>neun</b>   | <b>Девять</b>            |
| <b>10</b> | <b>decem</b>      | <b>dix</b>    | <b>ten</b>   | <b>zehn</b>   | <b>Десять</b>            |

#### Sonlarning turlanishi

Sanoq sonlardan: unus, duo, tres, yuzliklardan: **200** dan **900** gacha

(ducenti,nongenti gacha hammasi) va milla – **1000** , ko'plik shaklida turlanadi.

Unus, a, um soni sifat olmoshi kabi turlanadi. Sonning ko'plik shakli ot formasida bo'lishi mumkin. Shunda bitta predmetni ham anglatsa son ko'plik shaklida ifodalanadi.

Duo, duae, duo sonlari asosan I va II turlanish bo'yicha turlanadi.

Yuzlik sonlar **200** dan **900** gacha sifatning I va II turlanish, ko'plik shaklida turlanadi.

Sanoq sonlardan quattuor dan centum gacha hamma mille soni birlik shaklida turlanmaydi.

*Tres, m, f, tria, n* va *milla, n* sonlar III unli turlanish ko'plik shaklida turlanadi.

### **Miqdor (sanoq) sonlarining turlanishi. Jadval № 3**

| casus       | <b>masc.</b> | <b>fem.</b> | <b>neut.</b> | <b>masc.</b> | <b>fem.</b> | <b>neut.</b> |
|-------------|--------------|-------------|--------------|--------------|-------------|--------------|
| <b>Nom</b>  | unŭs         | una         | unum         | Duŏ          | duae        | duŏ          |
| <b>Gen</b>  | unŭs         | unus        | unius        | duorum       | duarum      | duorum       |
| <b>Dat.</b> | uno          | uno         | uni          | duobŭs       | duabus      | duobŭs       |
| <b>Acc.</b> | unum         | unam        | unum         | duos         | duas        | duŏ          |
| <b>Abl.</b> | uno          | una         | uno          | duobŭs       | duabŭs      | duobŭs       |
| <b>Acc.</b> | tres         | tria        | milia        | ducentos     | ducentas    | ducenta      |
| <b>Abl.</b> | tribŭs       | tribŭs      | milibus      | ducentis     | ducentos    | ducentos     |

Bosh kelishik birlik shaklida – *us, -a, -um* ga tugallanadigan tartib sonlar

**I** - turlanishda (femininumda ) turlanadi, **II** turlanishda ( masculinumda ) turlanadi,

**III**- turlanishda ( masculinum, neutrum) da turlanadi.

*Alter soni esa negizi – ro* – sifat olmoshi kabi turlanadi.

Yangi tillarda lotin tiliga eng yaqin bo'lgan til rus tili hisoblanadi. Ayniqsa, sonlar morfologiyasida. Ular to'liq kelishiklar sistemasiga ega. Nemis tilida faqat ein – bir soni kelishik bo'yicha turlanadi va miqdor sonlardan 2 va 3 ta turlanish qoldiqlari saqlanib qolgan.

Tartib sonlar xuddi rus va nemis tillaridek sifat formasida turlanadi.

### **Sonlarning sintaksisi.**

Lotin tilida gapda sanoq sonlar son yonidagi otga aniqlovchi bo'lib hizmat qiladi. Turlanadigan 1,2,3, va 200 dan 900 gacha bo'lgan sonlar nomi bir jinsda, kelishikda ko'plik va birlik shaklida ot bilan moslashadi.

Masalan; o'zbek tilida rodlar bo'lmaganligi uchun rus tilida ifodalaymiz.

una femīna – одна женщина

unum malum- одно яблоко

dicenti libri – двести книг

dicenta mala –двести яблок

4 dan 100 gacha va 1000 (mille) sanoq sonlari turlanmaydi,turlanishlar bo'yicha va otning kelishigiga ta'sir etmaydilar rus tulidan farqi shundan iborat.

*Milla* soni – minglar – turlanadigan neutrum roddagi ot qaratqich kelishigi shu otga qaraydi.

Lotin tilidagi sanoq sonlarning ot bilan kelishuvi hozirgi zamon rus tilidagi son va ot kelishuviga to'g'ri kelmaydi. Rus tilida “*одинь*” sonidan tashqari boshqa sonlar ot bilan kelganda ot qaratqich belgisida keladi.Lotin tilidagi *milla* soni bilan Tartib sonlar sifat kabi ot bilan ham jins, ham kelishik, ham ko'plik va birlik shaklida moslashadi. Murakkab tartib sonlarda har bir oddiy son tartib sonda ifodalanadi.

*Annus milisimus nongentsimus sexagesimus nonus* – bir ming to'qqiz yuz oltmish to'qqizinchi yul.

Rus tilida esa faqat oxirgi raqam tartib sonda keltiriladi.

### **Taqsim va ravish sonlar.**

Taqsim (distributiva) Ravish (adverbia)

1. *singūli, ae, e* - bittadan *semel* – bir marotaba

2. *binō, ae, e* - ikkitadan *bis* - ikki marotaba

3. *terno,ae, e* - uchtdan *ter* - uch marotaba

10 *deno, ae,e* - o'ntadan *decies* – 10 marotaba

100 *centeni,ae,e* - yuztdan *centies* – 100 marotaba

1000 *singūla milla* ( milleni) – mingtdan *milies* – 1000 marotaba

Taqsim sonlar suffiks – *n-* va jinslarning ko'plik shaklidagi –*I, ae, a* yordamida tuziladi. Ravish sonlar esa suffiks –*ies* yordamida tuziladi. Nechtadan?

So'rog'iga javob bo'ladigan taqsim sonlar ot bilan kelishilgan holda ko'plik shaklida sifat kabi I va II turlanishlar bo'yisha turlanadi.

Solishtiramiz:

Discipūli ducebtos libros habent – O'quvchilarda 200 ta kitob bor;

Discipūli singūlos,binos libros habent – o'quvchilarda bittadan,ikkitadan kitob bor.

Ravish sonlarda necha marotaba? so'rog'iga javob bo'ladi.

Hunc librum ter legi – bu kitobni uch marotaba o'qib chiqdi.

**Savollarga javob bering:**

1. Lotin tilida olmoshlarning qanday turlari mavjud?
2. Kishilik olmoshlari kelishiklarda qanday turlanadi?
3. O'zlik olmoshlari asosan qaysi shaxslarda qo'llaniladi?
4. Egalik olmoshlarining morfologik o'xshashliklari haqida fikringiz.
5. Nisbiy olmoshlar qaysilar va ularning qo'llanilishi qanday?
6. Gumon va bo'lishsizlik olmoshlari haqidagi tushunchangiz qanday?
7. Tarjima qiling.

Trecenti sexaginta quinque dies;

Trecentae sexaginta quinque noctes;

Trecentorum octaginta octo dierum;

Annus millesimus nongentesimus septuagesimus sextus.

Anno millesimo nongentesimo septuagesimo sexto.

## **7-Mavzu: Yordamchi so'z turkumlari**

1.Praepositio

2.Conjunctio

3.Interiectio

4.Particulae

**YORDAMCHI SO'ZLAR** .Yordamchi so'zlar turkumiga *ko'makchi, bog'lovchi*, *yuklama* kiradi. Yordamchi so'zlar mustaqil (leksik) ma'no bildirmaydi, faqat grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.



**Ko‘makchi.** Gapda vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlar *ko‘makchilar* deb ataladi. Ko‘makchi o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zdan keyin kelib, so‘zlar orasidagi birlik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ko‘makchi ikki xil bo‘ladi: 1. Sof ko‘makchi 2. Ko‘makchi vazifasidagi so‘z (funktional ko‘makchi).

**Prefikslar ( Qo‘shimchalar).** Prefikslar har doim so‘zning mustaqil ma‘nosiga ega. Prefikslar yordamida yasalgan so‘zlar so‘z yasash jarayoning natijasidir.

Murakkab so‘zlarni yasashda prefikslarning oxirgi harflari assimilyatsiyalanadi:  $n > m$  b va p dan oldin butunlay assimilyatsiyalanadi -i, r, m, d- lardan oldin odatda butunlay assimilyatsiyalanadi - c, f, g, n, p, t - lardan oldin.

**Otlarda prefiksatsiya.** (Prefeksatsiyalanish)

*pronomeni* - ( < *pro* + *nomen* ) – o‘rin holi;

*conscientia* – ( < *con* + *scientia* ) – idrok

*absurdus* – ( < *ab*+*surdus* ) – ma‘nosiz

*praeclarus* – ( < *prae* + *clarus* ) – juda och (rang), taniqli

**Fe‘llarda prefiksatsiya.**

*Praeferro, praeferre* ( < *prae* + *ferre* ) – hush ko‘rmoq

*Ineo, inire* ( < *in* + *eo* ) – kirmoq

*Intersum, interesse* ( < *inter* + *sum* ) – ichkarida bo‘lmoq

*Perficio, perficerre* ( < *per* + *facio* ) – oxiriga yetkazmoq (poyoniga)

**Prefikslar (Lotin tilida)**

*A, -ad, -ads; -de; -e, -ex; -in; -ad; -od; -con;*

*Pro; prae; trans; se, sed; dis, di; per; re.*

1. Sof ko‘makchi mustaqil ma‘no anglatmaydi, kelishik affikslariga yaqin turaladi. Sof ko‘makchilar quyidagicha: a) asl ko‘makchilar: bilan, uchun, qadar, sari, sayin; b) ot ko‘makchilar: burun, ilgari, keyin, boshqa, tashqari; v) fe‘l ko‘makchilar: qarab, ko‘ra, qaraganda, yarasha, boshlab.

*Bosh kelishikdagi so‘zlar* (ba‘zan qaratqich kelishikdagi olmosh) bilan qo‘llanadigan so‘zlar (ko‘makchilar): bilan, uchun, kabi, singari, yanglig‘ (poetik uslu

bga xos), sayin, orqali, sari, uzra, sababli, bo‘yi, orqali, tufayli, chog‘li, osha, bo‘ylab, bo‘yicha, ichra, degan, chamasi, haqda (to‘g‘rida, xususda), haqida, to‘g‘risida, holda, yo‘sinda.

*Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar:*

tomon, qadar. ko‘ra, dovur, qarshi, qarab, yarasha, qaraganda, muvofiq.

binoan, qaramasdan, qaramay, doir, asosan, qarata.

*Chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar:*

so‘ng, keyin, boshqa, tashqari, bo‘lak, ilgari, burun, avval, beri, buyon, ko‘ra.

2. Ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar: old, o‘rta, yon, orqa, tomon, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, yoqa, qosh.

**Bog‘lovchi.** Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va gap bo‘laklarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar *bog‘lovchi* deyiladi. Bog‘lovchilar qo‘llanishiga qarab yakka bog‘lovchilar va takroriy bog‘lovchilarga ajratiladi.

*Yakka bog‘lovchilar:* va, hamda, lekin, ammo, biroq. -ki (-kim), chunki, agar, toki, balki, go‘yo, basharti, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, gar.

*Takroriy bog‘lovchilar:* dam.., dam..., ba‘zan,..., ba‘zan, ham.., ham, bir..., bir, yoki..., yoki, yo.., yo, goh..., goh, xoh..., xoh.

Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- 1) teng bog‘lovchilar;
- 2) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

I. *Teng bog‘lovchilar* grammatik jihatdan teng bo‘lgan gap bo‘laklarini, teng munosabatli sodda gaplarni bog‘laydi. Teng bog‘lovchilar a) uyushiq bo‘laklarni b) qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Teng bog‘lovchilar quyidagicha:

1. Biriktiruv bog‘lovchilari: va, hamda (bilan, ham, -u,-yu,-da).
2. Zidlov bog‘lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki (-u,-yu).
3. Ayiruv bog‘lovchilari: yo, yoxud, yoki, yoinki, goh..., goh, ba‘zan..., ba‘zan, xoh..., goh..goh, dam..., dam, bir..., bir.

II. *Ergashtiruvchi bog'lovchilar* ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi, tobelik munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagicha:

1. Aniqlov bog'lovchilari: ya'ni,-ki,-kim
2. Sabab bog'lovchilari: chunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki.
3. Shart (va to'siqsizlik) bog'lovchilari: agar, agarda,basharti, agarchi (garchi), **garchand**, modomiki.
4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki.

**Yuklama.** Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no ifodalash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z *yuklama* deyiladi. Yuklama tuzilishi jihatidan ikki xil: a) affiks holidagi yuklamalar:-mi,-chi,-a (-ya),-da,-u (-yu),-oq (-yoq)-gina (-kina,-qina): b) so'z holidagi yuklamalar: axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki.

Affiks holidagi yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi; faqat -mi,-oq (yoq),-gina yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi: borasanmi?

**Yuklama turlari .** 1. So'roq va taajjub yuklamalari:-mi,-chi,-a,-ya, nahot, nahotki. 2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari:-da,-u (-yu),-ku,-oq (yoq), hatto,hattoki,axir. 3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina,-ina (-kina,-qina). 4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq..5. Gumon yuklamasi: -dir. 6. Inkori yuklamasi: -na..., na .

*Faqat* yuklamasi o'rnida *yolg'iz* so'zi qo'llanishi mumkin: *Yolg'iz o'zi aytmaganiga achindi.*

### **Modal so'zlar**

Fikrning voqelikka munosabatini bildirgan so'zlar modal so'zlar deyiladi. Modal so'zlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Fikrning aniqligini, realligini tasdiqlovchi modal so'zlar: albatta, shubhasiz, so'zsiz, shaksiz, **haqiqatdan**, darhaqiqat.
2. Fikrning taxminligini, gumonligini, noaniqligini bildiruvchi modal so'zlar: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog'i.
3. Fikrning o'zaro munosabatini va tartibini bildiradi(yoki fikrning oldingi fikr

rga bog'liqligini bildiradi): demak, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo. Demak, xullas, masalan, jumladan, umuman, chunonchi kabi modal so'zlar fikrni umumlashtirish, xulosa bildirish, dalil keltirish a'nolarini bildiradi. Avvalo, dastlab kabilar fikrning tartibini bildiradi.

4. Modallikni ifodalaydi: lozim, mumkin, shart, zarur.

5. Tasdiqni bildiradi: bor, mayli, xo'p, ha.

6. Inkorni bildiradi: yo'q, aksincha.

7. Afsuslanish, ajablanishni bildiradi: afsuski, attang, ajabo.

Modal so'zlar quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

a) diologlarda so'z-gap vazifasida(-ha); b) kirish so'z vazifasida.

Kirish so'z vazifasida turli so'z turkumlari, jumladan modal so'z kelishi mumkin. Modal so'zlar quyidagi so'z turkumlari bilan bog'langan; shular asosida shakllangan.

a) ot bilan : xaqiqatdan, darxaqiqat, chamasi, aftidan, afsus.

b) sifat bilan: shubhasiz, so'zsiz, shekilli.

v) fe'l bilan: demak, demoqchi.

g) ravish bilan: albatta, avvalo, ayniqsa.

d) yordamchi so'zlar bilan: balki, koshki, haytovur.

### **Undov so'zlar.**

Hishayajonni, xitobni bildirishga xizmat qiladigan so'zlar **undov so'zlar** deyiladi: undovlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) leksik (lug'aviy) ma'no anglatmaydi;

2) gap bo'lagi vazifasida kelmaydi va gap bo'laklari bilan grammatik jihatda bog'lanmaydi;

3) undovda ohang muhim o'rin tutadi;

4) kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik ma'nolarni bildirmaydi.

Undovlar tuzilishiga ko'ra: a) sodda: (oh, uh); b) tarkibli: (evoh,

bay-bay, eh,uh, hay-hay) bo'ladi.

Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. His-hayajon undovlari: oh, uh, e, be, voy, o‘hu, ehe, a, o, obbo.

2. Buyruq-xitob undovlari: a) chaqiriq undovlari: hey, hoy, hay, ey. hayvon-parrandalarni haydash-chaqirish undovlari: qurey-qurey, xo‘sh-xo‘sh. b) buyruq undovlari: ts, sh-sh-sh, tiss..s. v) tabrik, tashakkur, xayrlashuv undovlari: rahmat, marhamat, hormang, balli, ofarin, qulluq.

Undov otlashadi: *Oh-voyingni hech kim eshitmaydi.*

**Sintaksis.** Grammatika til haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so‘z turkumlari, sintaksisda so‘z birikmalari, gap turlari o‘rganiladi, Grammatika grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “o‘qish va yozish san’ati” degan ma’noni bildiradi.

Sintaksis ham grekcha so‘z bo‘lib, “tuzish” demakdir.

### **So‘z birikmasi.**

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan tobe munosabat asosida bog‘lanishi *so‘z birikmasi* deyiladi.

So‘z birikmasi gapdan quyidagicha farqlanadi.

1. So‘z birikmasi kengaygan ma’no ifodalaydi. Gap esa fikr bildiradi. Shu bois, so‘z birikmasi tugallanmagan ohang bilan aytiladi.

2. So‘z birikmasi ergash so‘z va bosh so‘zdan iborat bo‘ladi.

Gapda esa bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirok etadi.

Mustaqil so‘zlar ma’no va grammatik jihatdan bog‘lanib, so‘z qo‘shilmasi hosil qiladi. So‘z qo‘shilmasidagi so‘zlar bog‘lanishi ikki xil bo‘ladi a) teng bog‘lanish b) tobe bog‘lanish.

Teng bog‘lanishli so‘z qo‘shilmasida so‘zlar o‘zaro teng munosabatda bo‘ladi: ezgulik va yaxshilik. Tobe bog‘lanishli so‘z qo‘shilmasi (so‘z birikmasi)da bir so‘z boshqasiga tobe bo‘ladi:

bebaho xazina, umidvor nigoh.

Ega va kesimning bir-biriga bog‘lanishi so‘z birikmasi hisoblanmaydi.

So‘z birikmasida bosh so‘z va ergash so‘z quyidagicha farqlanadi:

a) bosh soʻzning maʼnosini izohlab, ravshanlashtirib kelgan soʻz ergash soʻz, maʼnosi izohlanayotgan soʻz esa bosh soʻz hisoblanadi.  
b) oldin kelgan soʻz ergash soʻz, keyin kelgan soʻz bosh soʻz boʻladi;  
v) bosh soʻzdan ergash soʻzga soʻroq beriladi: koʻrkam xiyobon-qanday xiyobon? g) kelishik qoʻshimchalari ergash soʻz tarkibida, egalik qoʻshimchasi bosh soʻz tarkibida boʻladi: mening maqsadim.  
Bosh soʻz qaysi soʻz turkumiga mansubligiga qarab, soʻz birikmasi ikki xil boʻladi: 1. Oʻtli birikma 2. Feʼlli birikma.

1. Bosh soʻz ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi bilan ifodalansa, oʻtli birikma hisoblanadi: nordon anor, asalday shirin, fidokorlikda birinchi, yigʻilganlarning barchasi, topshiriqni bajarish.

2. Bosh soʻz feʼl va uning ravishdosh, sifat-dosh shakllari bilan ifodalansa, feʼlli birikma hisoblanadi: kecha kelding, kelajakni oʻylab, erta kelgan.

### **Savollarga javob bering**

1. Yordamchi soʻz turkumlarini tahlil qiling?
2. Bogʻlovchilarning qanday turlarini bilasiz?
3. Undov soʻzlar qanday hususiyatga ega?

## **8-Mavzu: Soʻzlarni yasash qoidalari, oʻziga xos asosiy xususiyatlari.**

### **Minimum leksika (200 soʻz, 50 keng tarqalgan iboralar, "gaudeamus").**

1. Soʻz yasaliş
2. Barqanot iboralar
3. Gaudiamos madhiyasi

Soʻz yasaliş - 1) muayyan tilda mavjud boʻlgan usullar, namuna va qoliplar asosida, maʼlum vositalar yordamida yangi soʻz hosil qilish (soʻz hosil qiliniş). Mas, affiks yordamida Soʻz yasaliş. Bu yerda "yasaliş" soʻzi "yasamoq" feʼlining majhul nisbat shakli hisoblanadi va jarayonni ifodalaydi; birikmaning oʻzi esa lingvistik termin emas; 2) tilshunoslikning "Fonetika", "Leksikologiya"ga oʻxshash alohida sohasini (boʻlimini) bildiradi. Mac, lotin tili morfologiyasi, lotin tili

sintaksisi, o'zbek tili so'z yasalishi. Bu o'rinda "So'z yasalishi" birikmasi tilshunoslikka oid termin hisoblanadi. Tilshunoslikning bu bo'limida yangi yasama so'zlarning paydo bo'lishi va buning shartsharoitlari, yasama so'z tarkibiy qismlarining (So'z yasalishi asosi va so'z yasovchining) mohiyati, shuningdek, So'z yasalishi bilan bog'liq boshqa tushuncha va hodisalarning mohiyati o'rganiladi. Mac, So'z yasalishi ma'nosi, So'z yasalishi tipi va qolipi, So'z yasalishi me'yorlari, So'z yasalishi imkoniyati, So'z yasalishi dagi mahsullilikmahsulsizlik hodisasi, So'z yasalishi ning asosiy usullari, vositalari va boshqa Shu asosda tilning So'z yasalishi tizimi tag'lil etiladi. Lotin tilida yasama so'zlar, asosan, affikslar yordamida hosil qilinadi, ya'ni morfemaning bir turi so'z yasash uchun xizmat qiladi. Har qanday yasama so'zning tarkibi So'z yasalishi asosi va so'z yasovchidan iborat bo'ladi: huquqshunos (huquq — So'z yasalishi asosi, shunos — so'z yasovchi), tekislamoq (tekis — So'z yasalishi asosi, la— so'z yasovchi). So'z yasalishi asosi yasama so'z bo'lishi ham mumkin: bilimli (bilim — So'z yasalishi asosi, li — so'z yasovchi). O'zbek tilida faqat mustaqil so'zlardan, ularning ham ot, sifat, fe'l turkumiga oid so'zlardan yangiyangi so'zlar yasaladi. Demak, mustaqil suz turkumlaridan faqat ot, sifat va fe'l turkumlarigina So'z yasalishi tizimiga ega. O'zbek tili lug'at (leksik) tarkibining boyishi, rivojlanishida So'z yasalishining muhim o'rni bor.

Tibbiyot institutida lotin tili kursi mutaxassislikka oid maqsadlarni ko'zda tutib o'rganilsa-da, bilim doirangizni, dunyoqarashingizni kengaytirishda siz uchun ajoyib imkoniyatlar beradi.

Shu ma'noda qisqa ko'rinishdagi tugal mazmunli lotincha hikmatli so'zlardan foydalaniladi. Ko'pgina hikmatli so'zlar - bu mashhur antik yozuvchilar, faylasuflar, siyosiy arboblarning nutqidan olingan alohida iboralaridir. Keyingi yangi davr olimlariga taalluqli lotincha aforizmlar ham o'ziga xos ajoyib va chuqur mazmunlidir.

Lotincha barqanot iboralar

(og'izdan – og'izga o'tib keng tarqalgan so'z va iboralar)

1. Ab exterioribus ad interiora – sirtiga qarab ichini bil(ko'r).
2. Ab noc et ab hac – unday bunday; behuda befoyda

3. Ab imo pectore – Chin dildan ochiq yuz bilan
4. Ab incunabulis – Beshikdan; boshidan boshlab
5. Ab initio – Paydo bo'lishi bilan
6. Ab Jove principium – Yupiterdan boshlab (asosiysidan boshlab)
7. Ab origine – boshidan boshlab
8. Ab ovo usque ad mala – boshidan oxirigacha
9. Absit omen – bu yomon niyatda(ga) xizmat qilmasinda!
10. Absque omni – istisno ravshda, istisno tariqasida
11. Ab urbe condita – Rim paydo bo'lishidan boshlab
12. A contrario – teskarisini isbotlab berish
13. Acta diurna – kundalik voqealar(xabarlar)
14. Ad captandum benevolentiam – joylashishni to'g'rilash uchun
15. Ad disputandum – muhokama uchun
16. Ad exemplum – misolga qarab (misol uchun)
17. Ad extra – oxirgi paytlarda(iloji bo'lmaganda)
18. Ad fontes – asosiysidan boshlab (originalidan boshlab)
19. Ad glorium – shon-sharafga (shon sharaflar bo'lsin)
20. Ad hoc – bunga; bu hodisa uchun
21. Ad infinitum – oxirigacha (oxiridan ham nari)
22. Ad Kalendas Graecas – noma'lum vaqt oralig'ida
23. Ad libitum – xoxishiga qarab, majbur emas
24. Ad litteram – so'zma – so'z, asosan
25. Ad memorandum – xotira uchun
26. Ad modum – shu kabi, shunga o'xshash
27. Ad patres – bobosinikiga ketmoq (o'lgani ketmoq ma'nosida)
28. Ad referendum – ma'ruza uchun
29. Ad rem – ishiga qarab (ketishiga yoki bor bo'lishiga)
30. Ad usum – qo'llash uchun (ishlatish uchun)
31. Aequo animo – befarqlik bilan, chidam bilan
32. Alias – boshqacha (boshqa tomondan)



33. Alma mater – emizikli, boqadigan ayol (hurmatga sazovor ayol)
34. Alter ego – egizagim (meni ikkinchi ko'rinishim)
35. Anni currentis – yil davomida (butun yil bo'yi)
36. Anni futuri – kelasi yili
37. Anno domini – bizning asrimizda (xrestos tug'ulguncha)
38. Ante meridiem – yarim kungacha
39. Aperto libro – oq qog'ozda (boshidan)tayyorgarliksiz
40. A posteriori – tajribadan kelib chiqib
41. A prima - bir ko'rishdan
42. A priori – oldindan, tekshiruvsiz
43. Argumentum ad ignorantian
44. Aurea mediocritas – oltin markaz ()
45. Bellum frigidum – sovuq urush
46. Bona fide – sofdil, ishonuvchan yaxshi niyat bilan
47. Bona mente – yaxshi niyat bilan
48. Bonis auspiciis – yaxshilik alomati bilan
49. Breve manu – kalta qo'llik bilan (paysalga solmasdan)
50. Casus belli – urushga bahona
51. Causa causalis – bahonalar bahonasi (asosiy sabab)
52. Cetera desiderantur – qolganlari to'g'risida afsuslanish
53. Ceteris paribus – teng vaziyatda
54. Circulus vitiosus –o'zi isbot talab qiladigan narsa bilan boshqa narsani isbotlashga urinish.
55. Confer – taqqosla, qara (ilmiy ishlarda qo'llaniladi)
56. Consensu omnium – umumiy kelishuv
57. Contra bonos mores – ahloqsiz
58. Copia verborum – ko'pso'zlik
59. Corpus delicti – jinoyat tarkibi, dalil
60. Corpus juris – qonunlar majmuasi
61. Corrigenda – o'zgartirish, to'g'irlash

62. Cui prodest? – bu kimga qulay?
63. Cum grano salis – “sholi ichidagi kurmak”, kulguli
64. Currente calamo – “yozuvchi”, ustidan kulish
65. Curriculum vitae – “hayotdan qochish”, tarjimai hol
66. De facto ... de jure – haqiqiy qonuniy
67. Desiderata – tilak, istak
68. Deus ex machina – kutulmaganda aralashish
69. De visu – o‘z tajribasidan o‘tkazib, guvoh ko‘zlari bilan
70. Eo ipso – shu bilan, buni orqasidan
71. Errata – xato, barmoq izlari
72. Et cetera – boshqalar
73. Ex abrupto – birdan, kutilmaganda
74. Ex auditu – ovoz chiqarib
75. Ex cathedra – “minbardan”, aqidalarga asoslangan, rad qilib bo‘lmaydigan
76. Exempli gratia – misol uchun
77. Ex libris – kitobdan (kitobni egasini bildiruvchi)
78. Ex officio – majburiyatdan
79. Ex tempore – tayyorlanmasdan, birdan
80. Ex ungue leonem – “sher panjasida”(ruscha” balndparpvoz qush”)
81. Ex voto - va’ daga binoan
82. Ferro ignique – olov va qilich bilan
83. Flagrante delicto – jinoyat ustida, jinoyat joyida
84. Grata, rat et accepta – qonuniy, mos
85. Gratis – tekinga, bexudaga berish
86. Hoc est – buni anglatadi, ya’ni
87. Hoc loco – shu erda, shu joyda
88. Honoris causa – faxr uchun
89. Horribile dictu – aytish qo‘rqinchli
90. Idem per idem – “shunday, shunday orqali”, bir xil
91. In abstracto – umuman mavhum

92. In aeternum – umrbodaga, bir umrga
93. In corpore – to'liq tarkib bilan
94. In extenso – butunlay, butunligicha
95. In favorem – foyda uchun, foydasiga
96. Injuria realis – harakat bilan haqoratlash
97. Injuria verbalis – so'z bilan haqoratlash
98. In medias res – asl mohiyat, asl ma'no
99. Ipse dixit – “o'zim aytdim” (obruyiga tegishli)
100. Ipsissima verba – so'zma so'z
101. Ite, missa est – boringlar, hammasi tugadi
102. Jus gentium – halqaro huquq
103. Lapsus calami – yozuvdagi xato
104. Lapsus linguae – o'ylamasdan aytilgan gap
105. Larga manu – sahiylik bilan
106. Lege artis – san'atning barcha qoidalari asosida ustalik bilan
107. Loco citato – eslangan joyda
108. Loco laudato – aytilgan joyda
109. Mala fide – chin dildan emas, haqiqat emas
110. Margaritas ante porcas – cho'chqalar oldiga marjon sochish
111. Materia tractanda – muhokama qilinadigan narsa
112. Memento mori – o'limni esda tutinglar
113. Mensis currentis – shu oyda
114. Meo voto – mening fikrimcha, o'ylashimcha
115. Modus agendi – harakat ko'rinishi
116. Modus vivendi – hayot ko'rinishi
117. Mutatis mutandis – o'zgartirishlar bilan, so'z orqali o'zgartirishlar bilan
118. Nec plus ultra – boshqa, oxirgi daraja
119. Nemine contradicente – bir ovozdan e'tirozsiz
120. Ne quid nimis – ortiqchasiz
121. Ne varietur – o'zgartirilmaydigan

122. Nomen es omen – ismlar o'zi haqida so'zlaydi; ma'lumot beradi
123. Nomina sunt odiosa – ismlar ma'lumot bermaydi (ismlar haqida jim bo'lgan yaxshi)
124. Non multa, sed multum – “ko'pmas lekin juda ko'p” (bir ikkita so'z bilan asosiylarini aytish)
125. Non olet - “hidsiz” (pul haqida, ular qayerdan kelgani muhim emas)
126. Nudis verbis – quruq gapdan iborat bo'lgan dalilsiz
127. Opus citatum – inshoga sitata keltirish
128. Panem et circensis – non va ko'rinish
129. Pars pro toto – butun o'rniga bo'lak
130. Per se – har kim o'zicha
131. Persona grata – xoxishdagi shaxs, ishonuvchan
132. Primus inter pares – tengqurlar o'rtasida birinchi
133. Post hoc, ergo propter hoc – bundan keyin demak buni izidan
134. Post meridiem – tushdan keyin
135. Probatum est – tasdiqlandi
136. Pro domo (mea, sua) – o'zim uchun, o'zi haqida
137. Quantum satis – qancha xoxlansa, miriqib
138. Qui pro quo – bittasi boshqasi o'rniga, anglashilmovchilik
139. Quod erat demonstrandum – nimani isbotlash kerak bo'lsa, baribir bo'lishi shart
140. Rara avis – kamyob qush
141. Sapient sat – aqlli yarim so'zidan tushunadi, aqllilik bilan
142. Semper idem – har doim bir xil
143. Sine ira et studio – g'azabsiz jaholatsiz
144. Status quo – shu yo'sinda, shu tartibda
145. Sua sponte – o'z-o'zi bilan, o'z ixtiyori bilan
146. Sub specie aeternitatis – abadiyat nuqtai nazaridan
147. Tabula rasa – “toza doska”, (bolani insonni dunyoqarashiga nisbatan), hech narsa bilmaydi
148. Terra incognita – ochilmagan mamlakat, bilimni notanish bo'limi

- 149. Ultima ratio – oxirgi dalil
- 150. Urbi et orbi – shaharga, dunyoga, butun olamga
- 151. Ut supra – yuqorida aytilganidek
- 152. Verbatim – so’zma-so’z, oqizmay tomizmay
- 153. Vice versa – aksincha, teskarisiga
- 154. Volens nolens – istar-istamas, chor- nochor, xoxlasa, xoxlamasa

## G A U D E A M U S

( Shodu xurram bo’laylik )

Bu she’r talabalar madhiyasi bo’lib XY asr da Niderlandiyalik kompositor Jan Okegem tomonidan tasdiqlangan. Rossiyada bu madhiyani 4 kishilik erkaklar Xori uchun fortepianoda 1874 yil P.I.Chaykovckiy tomonidan qayta ishlandi. Buni lotin tilidan Moskva Universitetininig professori, matematik N.V.Bugaev rus tiliga tarjima qilgan.

1

Gaudeamus igitur,

Juvenes dum sumus!

Post jucundam juventutem,

Post molestam senectutem

Nos habebit humus!

2

Ubi sunt, qui ante nos

In mundo fuere?

Vadite ad superos,

Transeas ad inferos,

Hos si vis videre!

3

Vita nostra brevis est,

Brevi finietur.

Venit mors velociter,

Rapit nos atrociter,

Nemini parceretur!

4

Vivat Academia!

Vivant professores!

Vivat membrum quodlibet!

Vivant membra quaelibet!

Semper sint in flore!

5

Vivant omnes virgines

Graciles, formosae!

Vivant et mulieres

Tenerae, amabiles,

Bonae, laboriosae!

6

Vivat et res publica

Et qui illam regunt!

Vivat nostra civitas,

Maecenatum caritas,

Quae nos hic protegunt!

7

Pereat tristitia,

Pereant osores!

Pereat diabolus,

Quivis antiburschius

Atque irrisores!

### **Savollarga javob bering**

1. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarga izoh bering?
2. “Gaudeamus” nechinchi asrda yaratilgan?
3. “Gaudeamus” kim tomonidan lotin tilidan rus tiliga tarjima qilingan?

## V. КЕЙСЛАР БАНКИ

### **Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'ulo1-variant**

**Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas .**

**1. Keys bilan yakka tartibda tanishish.**

**2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlash:**

**2.1. Aqliy hujum: - muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.**

**2.2. Jamoaning bahosi va ustuvor g'oyalarning tanlanishi.**

**3. O'qituvchi rezyumesi.**

**4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash**

### **2-variant**

**Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.**

**1. Keys bilan yakka tartibda ishlash.**

**2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan munozarasi.**

**3. O'qituvchi rezyumesi.**

**4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash**

### **3-variant**

**Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'rtacha o'lchamli.**

- 1. Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlash.**
- 2. Auditoriyada ishlash:**
  - 2.1. Kichik guruhlarda ishlash: keys bilan yakka tartibda ishlash natijalarini muhokama qilish bo'yicha kichik guruhlardagi ishlar; jamoaning muammo yechimi bo'yicha taklif qilingan muqobil variantlarni tahlil qilishi va baholashi, ustuvor g'oyani tanlashi; muammoli vaziyatni hal etish dasturining ishlab chiqilishi.**
  - 2.2. Guruh ishi taqdimoti.**
  - 2.3. Muammoli vaziyat yechimi bo'yicha taklif etilgan variantlarning jamoadagi muhokamasi.**
- 3. O'qituvchi rezyumesi.**
- 4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash**



## VI. ГЛОССАРИЙ

|     |              |   |                           |
|-----|--------------|---|---------------------------|
| 1.  | Alphabetum   | - | Алфавит                   |
| 2.  | Vocales      | - | Унлилар                   |
| 3.  | Consonantes  | - | Ундошлар                  |
| 4.  | Accentus     | - | Урғу                      |
| 5.  | Syllaba      | - | Бўғин                     |
| 6.  | Nomen        | - | Сўз туркуми               |
| 7.  | Substantivum | - | От                        |
| 8.  | Declinatio   | - | Турланиш                  |
| 9.  | Numerus      | - | Сон                       |
| 10. | Singularis   | - | Бирлик                    |
| 11. | Pluralis     | - | Кўплик                    |
| 12. | Genus        | - | Род                       |
| 13. | Masculinum   | - | Мужской род               |
| 14. | Femininum    | - | Женский род               |
| 15. | Neutrum      | - | Средний род               |
| 16. | Casus        | - | Келишик                   |
| 17. | Nominativus  | - | Бош келишик               |
| 18. | Genetivus    | - | Қаратқич келишиги         |
| 19. | Dativus      | - | Жўналиш келишиги          |
| 20. | Accusativus  | - | Тушум келишиги            |
| 21. | Ablativus    | - | Чиқиш келишиги            |
| 22. | Vocativus    | - | Чақириш                   |
| 23. | Adjectivum   | - | Сифат                     |
| 24. | Verbum       | - | Феъл                      |
| 25. | Tempus       | - | Замон                     |
| 26. | Praesens     | - | Ҳозирги замон             |
| 27. | Imperfectum  | - | Тугалланмаган ўтган замон |

|     |                   |   |                         |
|-----|-------------------|---|-------------------------|
| 28. | Futurum primum    | - | Келаси замон            |
| 29. | Perfectum         | - | Тугалланган ўтган замон |
| 30. | Plusquamperfectum | - | Узоқ ўтган замон        |
| 31. | Futurum secundum  | - | Иккинчи келаси замон    |
| 32. | Persona           | - | Шахс                    |
| 33. | Modus             | - | Майл                    |
| 34. | Indicativus       | - | Аниқлик майли           |
| 35. | Imperativus       | - | Буйруқ майли            |
| 36. | Conjunctivus      | - | Шарт майли              |
| 37. | Genus             | - | Нисбат                  |
| 38. | Activum           | - | Аниқ нисбат             |
| 39. | Passivum          | - | Мажхул нисбат           |
| 40. | Praepositio       | - | Олд кўмакчи             |
| 41. | Conjugatio        | - | Боғловчи                |
| 42. | Particulae        | - | Юклама                  |
| 43. | Interiectio       | - | Ундов                   |
| 44. | Affirmativus      | - | Бўлишли                 |
| 45. | Negativus         | - | Бўлишсиз                |
| 46. | Numeralia         | - | Сон                     |
| 47. | Ordinalia         | - | Саноқ сон               |
| 48. | Cardinalia        | - | Тартиб сон              |
| 49. | Pronomen          | - | Олмош                   |
| 50. | Personalia        | - | Кишилик олмоши          |
| 51. | Possesiva         | - | Эгалик олмоши           |
| 52. | Reflexivum        | - | Ўзлик олмоши            |
| 53. | Determinativa     | - | Белгилаш олмоши         |
| 54. | Interrogativa     | - | Сўроқ олмоши            |
| 55. | Negativa          | - | Бўлишсиз олмоши         |
| 56. | Relativa          | - | Нисбий олмоши           |

|     |              |   |                 |
|-----|--------------|---|-----------------|
| 57. | Indefinita   | - | Гумон олмоши    |
| 58. | Adverbium    | - | Равиш           |
| 59. | Gradus       | - | Даража          |
| 60. | Positivus    | - | Оддий даража    |
| 61. | Comparativus | - | Қиёсий даража   |
| 62. | Superlativus | - | Ортгирма даража |

## **VII. АДАБИЁТЛАР РЎЙЎАТИ**

### **I. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

### **II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Т.: Ўзбекистон, 2018.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎзРҚ-637-сонли Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабр “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрел "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь "2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5544-сонли Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май "Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5729-сон Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июн "2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетда талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4358-сонли Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август "Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида"ги ПФ-5789-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь "Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-6097-сонли Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь "Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 797-сонли қарори.

### III. Махсус адабиётлар

1. Латинский язык и основы медицинской терминологии: учеб. пособие / Л. В. Долгушина; Новосиб. гос. ун-т. – Новосибирск: РИЦ НГУ, 2013. – 96 с.
2. Латинский язык и основы терминологии / под ред. Ю. В Шульца. М.: Медицина, 2015. 206 с.
3. Лотин тили. Л. Хўжаева, Х. Зоҳидова. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2015. 204 б.
4. Петрова Г. В., Еремичева В. И. Латинская терминология в медицине: справочно-учебное пособие для медиков и фармацевтов. М.: Астрель АСТ, 2017.
5. Хрестоматия по латинскому языку: для вузов / сост.: О. В. Бударagina, Т. Б. Путилова; под. ред. Н. М. Ботвинник. –М. [и др.]: Академия [и др.], 2013. – 115 с.
6. Proverbia et dicta Latina: методическая разработка для студентов дневного и заочного отделений филологического факультета / [Сост. Т. В. Вяничева] – Томск: Изд-во ТГПУ, 2010. – 66 с.
7. Бондаренко М. А. “Латинский язык и основы медицинской терминологии”. Киев, 2007.
8. Ходжаева Л.У., Зоҳидова Х.А., Раҳматуллаева З.З. “Лотин тили”. –Андижон, 2005.
9. Кондратов Д., Вйлегзьянина О., Князева Ж. “Latin and Fundamentals of Medical Terminology” –Grodno, 2005.
10. Исраилова М.Н. Словарь латино-греко-русско-англо-узбекских медицинских терминов. –Ташкент, 2017. Агентство по интеллектуальной собственности Республики Узбекистан ДГУ 04860.
11. Тошхонов М., Турдикулова Р., Пўлатова Ш. Лотин тили. Тошкент, 2006
12. Ярхо В. Н., Лобода В.И. Учебник латинского языка. М., Просвещение, 1996
13. Соболевский С.И. Латинский язык. Москва, 1982
14. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словарь. Москва, 1986

15. Кацман Н.Л. Латинский язык. Москва, 1991
16. Покровская З.А., Кацман Н.Л. Латинский язык. М., 1987
17. Л.У. Хўжаева, Х.А.Зохидова, З.З. Рахматуллаева. Латин тили. Тошкент 2015

#### **IV. Интернет сайтлар**

1. <http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
2. <http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
3. <http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази
4. <http://ziyonet.uz> – Таълим портали Ziyonet
5. <http://www.gumer.info.ru> - Тил ўрганиш сайти:
6. <http://www.knigafund.ru> - Тил ўрганиш сайти